

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
R.G'. Jumayev
« 29 » 2024 y.

«KELISHILDI»

O'quv-uslubiy departament
Boshlig'i M.A. Tursunov

« 29 » 2024 y.

«KELISHILDI»

Xorijiy tillar fakulteti
dekani N.B. Ataboyev

« 29 » 2024 y.



5120100- Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari
uchun

“O'rganilayotgan til nazariy aspektlari” ixtisoslik fanlaridan
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon
DASTURI

4.01. Ixtisoslik fanlari:

- 3.01.1 Leksikologiya
- 3.01.4 Nazariy grammatika
- 3.01.2 Nazariy fonetika
- 3.01.2 O'rganilayotgan til tarixi

Buxoro – 2024 yil

Mazkur dastur Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) kechki ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

"O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bosqichma bosqich 2,3,4-kurslarda o'qitiladi. Ushbu fan xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy va uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dastur to'rtta ixtisoslik fanlari, jumladan Leksikologiya, Nazariy grammatika, Nazariy fonetika hamda O'rganilayotgan til tarixi fanlari namunaviy dasturlari asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Z.I. Rasulov, Ingliz tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.d., professor

A.A. Haydarov, Ingliz tilshunosligi kafedrasini professori, f.f.n.

A.B. Kobilova, Ingliz tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

G.B. Batirkulova, Buxoro shahar 3-umumiy ta'lim maktabining C1 darajali birinchi toifali ingliz tili o'qituvchisi

Z.R. Fattoyeva, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutining C1 darajali ingliz tili o'qituvchisi

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Xorijiy tillar fakulteti uslubiy kengashining 2024 yil 27.04 dagi 10-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqqa tavsiya etilgan.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Buxoro davlat universiteti Uslubiy Kengashining 2024 yil 30.04.28-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

1.1. O'quv fanining dolzarbligi va oily kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan tilning fonetik jihatlarini, grammatik strukturasi, tilning lug'at tarkibi, til birliklarining semantik xususiyatlari, frazeologik birikmalari, so'z yasash usullari, til lug'at tarkibining etimologiyasi, lug'atshunoslik, til birliklarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari, til variantlari, shevalarning funksional jihatlarini, tillar tarixi hamda til taraqqiyotining qonuniyatlari kabi masalalarni qamrab oladi.

Talabalarni nazariy fonetika, nazariy grammatika, leksikologiya, o'rganilayotgan til tarixi, stilistika kabi aspektlarning ilmiy asoslari va filologik fanlar o'rtasidagi o'rni to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

"O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bosqichma bosqich 2,3,4-kurslarda o'qitiladi. Ushbu fan xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy va uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

1.2. O'quv fanining maqsad va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni til to'g'risidagi asosiy nazariy tushunchalar, chet tilini o'rganishning uslub va yondashuvlari, tilning ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati bilan tanishtirish, ularga til sathlarining nutqiy muloqot jarayonida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarda tilning ichki tuzilmasi, til qatlamlari va birliklarini ilmiy asosda tadqiq etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalarga ega bo'lishlarini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

5120100- Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) kechki ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun

"O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma ishtarini

BAHOLASH MEZONLARI

O'rganilayotgan til nazariy aspektlari ixtisoslik fanidan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma usulda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, O'rganilayotgan til nazariy aspektlariga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustakil, anik fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan xolda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bolsa, uzlashtirish kursatkichi 21,5-25 ball oraligida baxolanadi.

Savolga tugri javob yozilsa, **O'rganilayotgan til nazariy aspektlarini** ilmiy-amaliy jihatdan asosli mantiqli yoritilgan bulsa, biroq tilshunoslik nazariyasining asoslarini, lingvistik qonunlar va tushunchalar kategoriyalarini, muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlaridan foydalanishda ayrim noanikliklarga yul kuyilgan bulsa, uzlashtirish kursatkichi 21-18 ball oralig'ida baxolanadi.

Savolga asosan tugri javob yozilsa, biroq kuyilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushoxada bayonida tarkoklik kuzatilsa, uzlashtirish kursatkichi 17,5-14 ball oralig'ida baxolanadi.

Savolga javoblar notugri yozilsa, ukuv adabiyotidan suzma-suz kuchirilgan bulsa yoki savollarga, umuman, javob yozilmagan bulsa, uzlashtirish kursatkichi 0-13,5 ball oralig'ida baxolanadi.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi	Ballar taqsimoti
1	21,5-25	A'lo (90-100)	Lisoniy muloqot jarayonlarini tahlil qilish usullarini qo'llash, nutqiy muloqot muammolari bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarga ega. Kuyilgan savollar mazmunan anik yoritilib, o'rganilgan xorijiy til fonetik strukturasi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining asosiy tushunchalari va kategoriyalari mazmun-mohiyati tulik ochib berilgan.	8- 8,5
			Tilshunoslik nazariyasining asoslarini, lingvistik qonunlar va tushunchalar kategoriyalarini, muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olish buyicha mustakil, ijodiy fikr mavjudligi.	7- 7,5
			Javoblarda mantqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar kilangan. Imlo va stilistik xatolarga yul kuyilmagan.	5-6,5
				1,5-2,5
2	18 -21	Yaxshi (70-89)	Javob tugri yozilgan, unda lingvistik bilimlar asosli yoritilgan, ammo muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlari ifodalangan yoki chalkashliklarga yul kuyilgan.	6-7
			Javobda talabaning mustakil mushoxada yuritish kobilyati seziladi. Ijodiy yondashuv mavjud.Талаба муаммони таҳлил қилиш қобилияти эга.	5,5-6
				3,5-4 3-4
3	14-17,5	Qoniqarli (60-69)	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarkoklik kuzatiladi.	5-6
			Javoblarda mantikiylik tamoyili buzilgan.Тасаввурпра эга, лскин таҳлил етарли эмас.	4-4,5
				3-4 2-3
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-59)	Savol buyicha anik tasavvurga ega emas. Umuman javob yozilmagan. Notugri javob va ma'lumot berilgan. Ukuv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan	0-13,5

3.01.1 Leksikologiya fani dasturining asosiy nazariy qismi

1-mavzu. Leksikologiya faniga kirish

Fanning mazmuni. Leksikologiya terminining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Fanning predmeti va ob'ekti, fanning metodi va ishlatish yo'llari. Leksikologiya fanining bo'limlari va uning boshqa qismlari bilan bog'liqligi.

2-mavzu. Semasiologiya

So'z til lug'at tarkibining asosiy birligi sifatida. So'zning morfema, so'z shakli, so'z birikmasidan farqli xususiyatlari. Motivatsiya tushunchasi. Idiomatica va motivatsiya turlari: fonetik, morfologik, semantik. Ma'no va so'z ma'nosining tuzilishi. O'rganilayotgan til, ona tili va boshqa tillardagi so'zlarning semantik tuzilishi. So'z ma'nosining tuzilishini o'rganishda paradigmatica va sintagmatikaning roli. Kontekst va uning turlari. Sodda, tub, yasama va qo'shma so'zlarning o'ziga xos ma'nolari. So'z ma'nosi va uning tuzilishi. Frazeologik birliklar ma'nolarining xususiyatlari, ma'no turlari tasnifi. So'zning leksik- semantik variantlari. Ma'no tuzilishida sinxronik va diaxronik qarashlar va uning rivojlanish qonuniyatlari. Lug'at birligini semantik guruhlariga ajratish. Semantik maydon. Monosemiya, polisemiya, giperonimiya va giponimiya muammolari. Sinonim, antonim va omonimlar masalalari, va ularning manbalari, tasnifi, tilni boyitishi va til rivojlanishidagi ahamiyati.

3-mavzu. So'zning morfologik tuzilishi

Bir va ko'p morfemali so'zlar. Morfemaning leksik birlik ekanligi. Morfemalar turlari va sinflari. So'z negizi va uning turlari. Hozirgi zamon ingliz tilida so'z tuzilishining turlari. So'z tuzilishiga diaxronik va sinxronik qarash. Morfemalar yasash. Morfema va allomorfemalar. So'z tuzilishini morfemik tahlil qilish asoslari va ularning so'z yasash tahlilidan farqi.

4-mavzu. So'z yasash

So'z yasash usullari. So'zning asosiy tarkibiy qismlari. So'z negizi. O'zakning tuzilishi va semantikasi. Keng va kam tarqalgan usullar bilan so'z yasash. Leksik nomlashda so'z yasashning roli va o'rni. So'z yasash qatorlari zanjiri. Old qo'shimchalar va ularning turlari. Har xil mezonlarga asoslanib old qo'shimchalarni tasnif etish. O'zak old qo'shimchalarning semantikasi. Yarim old qo'shimchalar yordamida so'z yasash. Konversiya, uning kelib chiqishi va asoslari. So'z yasash yo'lini aniqlashda konversiyadagi semantik aloqalarning asosiy mezon ekanligi.

Konversiyaning keng tarqalganligini belgilovchi asosiy omillar. Konversiyani tarjima qilish muammolari. Qo'shma so'zlarning so'z yasashning keng tarqalgan yo'llaridan biri ekanligi.

An'anaviy va zamonaviy tilshunoslikda qo'shma so'zlarni tasnif qilish asoslari. Qo'shma so'z yasashning har xil turlari, ularning keng tarqalganligi. Qo'shma so'zlarni ona tiliga tarjima qilish yo'llari. Qisqartma so'zlar (abbreviatsiya). Qisqartma so'zlarning turlari. Klippinglar. Qisqartma so'zlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar. So'z yasashning boshqa usullari: ma'no kengayishi, tovush va urg'u ko'chishi, tovushga taqlid qilish va reduplikatsiya, grammatik shakllarning leksikalizatsiyalashuvi va so'z yasashda har xil turlarning birikuvi.

5-mavzu. Frazeologiya

Frazeologiyaning maqsad va vazifalari. Turg'un va erkin birikmalarni farqlash muammosi, ularni farqlovchi belgilar. Leksik birikish. Turg'un birikmalar va ularning har xil mezonlarga asosan tasnifi. Frazeologik birliklarning yuzaga kelish yo'llari. So'z va so'z birikmasining o'xshashligi va farqi. Frazeologik birliklar va ularni tarjima qilish muammolari.

6-mavzu. Etimologiya

Til lug'at tarkibining etimologik jihatdan tasnifi. O'rganilayotgan tilda keyin paydo bo'lgan va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar. Xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning turlari, o'zlashtirilishi, assimilyatsiyasi, lug'at tarkibi va so'z yasash tizimiga ta'siri. Baynalminal so'zlar. Etimologik lug'atlar.

7-mavzu. Leksikografiya

Leksikografiyaning fan sifatida rivojlanishi. Lug'atlarning asosiy turlari: entsiklopedik, lingvistik, izohli va tarjima lug'atlari. Lug'at turlari muammosi va ularni yaratish usullari. Lug'atlar uchun so'z tanlash, lug'at maqolalarining tuzilishi va boshqalar. Ingliz, nemis, frantsuz va ispan tillaridagi lug'atlarning asosiy turlari: izohli va tarjima lug'atlari, sinonimlar lug'ati, frazeologik birliklar lug'ati, etimologik, ideografik, maxsus lug'atlar, neologizmlar lug'atlari va boshqalar. O'quv lug'atlarining tuzilishi (so'zlarning birikish yo'llari lug'ati, ko'p qo'llaniladigan so'zlar lug'ati). Turli lug'atlarda so'z ma'nolarini ochib berish yo'llari. Tarjima jarayonida lug'at bilan ishlash. So'zning izohli tahlilini o'rganish, boshqa lug'atlardagi izohlari bilan qiyoslash.

Til lug'at tarkibining o'zgarishi sotsiolingvistik hodisa ekanligi. Lug'at tarkibining sifat va son jihatdan o'zgarishi. Lug'at tarkibining leksik va stilistik tasnifi. So'zlarni ishlatilishi jihatidan tasnif etish. Umumiste'mol so'zlari va maxsus leksika. Arxaizmlar, istorizmlar, neologizmlar, ularning tarixiy bog'liqligi va o'zaro ta'siri. Asosiy va yordamchi so'z turkumlarining son jihatidan o'zaro farqi. Nomlashning faolligi va lug'at tarkibining boyish yo'llari. So'zning ma'no taraqqiyoti rivoji, boshqa tillardan kirgan so'zlar qatlami.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мүминов А. English Lexicology. Т.2006
2. Гинсбург. Р.Й., Хидекил.С.С.,Князева.Г.Й.,Санкин.А.А.; A course in Modern English Lexicology «М»1979й
3. Арнолд.И.В. The English Word «М»1986й
4. Антрушина.Г.Б. Лексикология английского языка «М.Дрофа»2006
5. Давлетбаева Д.Н.Lectures on English lexicology Казань - 2010.

3.01.4 Nazariy grammatika fani dasturining asosiy nazariy qismi 1-mavzu. Nazariy grammatika faniga kirish

Morfologiya va sintaksis. Grammatikaning ta'rifi. Grammatik shakl va grammatik ma'no. Til va nutq. Aktualizatsiya. Grammatik qurilishning birliklari. Tilni grammatik jihatdan tasvirlashning turlari. Grammatikadagi metod va nazariy yo'nalishlar. Grammatikadagi asimmetriya hodisasi. Funktsional yondashuv. Grammatik kategoriyalar. Grammatik kategoriyaning mazmun plani. Grammatik kategoriyaning ifoda plani.

2-mavzu. Morfologiya

O'rganilayotgan tilning grammatik vositalari: so'z tartibi, yordamchi so'zlar, grammatik qo'shimchalar, urg'u va intonatsiya, o'zak tarkibidagi tovushlar o'zgarishi. Morfema, morf, allomorf va ularning strukturaviy turlari. Morfemanning turlari. Analitik shakl tushunchasi. Til grammatik tizimining xususiyatlari. So'z turkumi. Asosiy so'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'zlar. O'rganilayotgan tilda so'z turkumlarining umumiy xususiyatlari. So'z turkumlarining shakl va ma'nolari. Transpozitsiya xodisasi.

3-mavzu. Ot so'z turkumi

Xorijiy tilda otning distributiv belgilari. Ularning boshqa so'z turkumlari yordamida qo'shilishi. Otning so'z turkumi sifatida morfologik va semantik xarakteristikasi. Otlarning asosiy semantik guruhlari. Son kategoriyasi. Otlarda ko'plik kategoriyasining ishlatilishi. Jamlovchi va partitiv otlar. Determinativlar. Determinativlarning so'z turkumi sifatidagi umumiy xossalari. Determinativlarning semantikasi. Kelishik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi haqida har xil nazariyalar. Egalik kelishigining shakli va uning qo'llanish xususiyatlari. Aniqlik-noaniqlik kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita. Artiklning umumnazariy muammolari, artiklning funktsiyalari, Rod kategoriyasi

4-mavzu. Sifat va ravish

Sifat so'z turkumi sifatida. Uning asosiy xususiyatlari. Sifatning semantik tasnifi. Qiyoslash kategoriyasiga oid olmoshlarning semantikasi, sintaktik xossalari, grammatik kategoriyalari va shakllari. Ravishning semantik - grammatik guruhlari. Adverbializatsiya.

5-mavzu. Fe'l

Fe'l - so'z turkumi sifatida. Uning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, umumiy va farq qiluvchi tomonlari. Fe'lning morfologik vazifasiga ko'ra tasnifi: mustaqil fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar, ma'no jihatidan tugallangan va tugallanmagan fe'llar. Fe'lning grammatik kategoriyalari: aspekt (tarz) kategoriyasi, nisbat kategoriyasi. Majxul nisbatning keng tarqalish sabablari. Majxul konstruksiyalarning qo'llanish xususiyatlari. Fe'l mayllari. Ular to'g'risidagi zamonaviy kontsepsiyalar. Fe'lning semantik - grammatik guruhlari. Fe'l tizimidagi grammatik ma'nolarni ifoda qilish vositalari. Fe'lning shaxssiz formalari. Infinitiv, gerundiy va sifatdosh.

6-mavzu. Son, Olmosh

Son-so'z turkumi sifatida. Conning turlari. Sonning gapdagi vazifalari. Olmosh so'z turkumi sifatida. Olmoshning kelishik kategoriyasi. Olmoshning semantik va strukturaviy turlari.

7-mavzu. Yordamchi so'z turkumlari

Artikl', ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va modal so'zlar.

8-mavzu. Sintaksis

Gap tushunchasini aniqlash xaqidagi asosiy fikrlar. Gapni aniqlashda klassik yondashuv. Gap tasnifi. Gapning maqsadga ko'ra turlari: bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar. Gapda ellipsis tushunchasi. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarning farqi. Gap - kommunikatsiya birligi sifatida, gapning vazifasi, tuzilishi. Asosiy va ikkinchi darajali bo'laklar. Ega. Eganing ifoda vositalari. Kesim - gapning asosiy belgisi sifatida. Modallik tushunchasi. Kesimning asosiy xususiyati. Modallik kategoriyasining ifoda usullari. So'z birikmasi. Birikma xosil bo'lish omillari. So'z birikmasining strukturaviy - funktsional tipologiyasi. So'z birikmasining komponentlari o'rtasidagi semantik munosabatlar. Gap bo'laklarining strukturaviy tiplari. Gap bo'laklari va so'z turkumlari o'rtasidagi munosabat. Predikativlik munosabatlarining o'ziga xos shakllariga ega bo'lgan gaplar. Qisqartirilgan sintaktik strukturaga ega bo'lgan gaplar. To'liqsiz gaplar. Atov gaplar. Polipredikativlik va murakkablashgan gaplar. Qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.

9-mavzu. Til grammatik strukturasi tahlil qilishning zamonaviy metodlari

O'rganilayotgan til grammatik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. Grammatik ma'noni ifoda etuvchi vositalar. Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. So'zning sintetik va analitik shakllari. So'z turkumlari va gap bo'laklari orasidagi munosabat. So'zning morfologik strukturasi. Morfema va uning turlari. Kombinatorika tushunchasi. Morfologiya va Sintaksis. Sintaktik strukturalar. Sintaksisda modellash tushunchasi. Gapni tahlil qilish metodlari. Grammatikaning turlari: an'anaviy grammatika, mantiqiy grammatika, strukturaviy

grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi, transformatsion grammatika, generativ grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika. O'rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqalar turlari; Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari. Murakkab tarkibli strukturalar. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funktsional tahlili.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Blokh M.Y. Theoretical Grammar of the English Language. M.: , 2004
2. Iriskulov M., Kuldashev A. Theoretical Grammar of the English Language. T.: 2008
3. Nino Kirkavialidze. Theoretical Course of English Grammar. Tbilisi, 2013
4. Eastwood J. Oxford guide to English grammar. Oxford, OUP, 2002.
5. Downing A., Locke F. English Grammar. A University Course. Routledge, 2006, 640 p.

3.01.2 Nazariy fonetika fani dasturining asosiy nazariy qismi

1-mavzu. O'rganilayotgan tilda segment fonemalar

Segment fonemalarning artikulyatsion tomoni: tovushlar hosil bo'lishining to'rt mexanizmi (kuch, tebranish, rezonatorlik va to'siqni yengish), ularga aloqador bo'lgan nutq organlari. Nutq organlarining tuzilishi, faoliyati va vazifalari. Unli tovushlarni tasnif qilishda o'zbek, rus, Yevropa va Amerika olimlarining fikrlari. Unlilarning talaffuz turg'unligiga ko'ra (monofong, diftong, diftongoid), tilning gorizont va vertikal harakatiga ko'ra, lablarning holatiga ko'ra, tarixiy cho'ziqligiga ko'ra, nutq organlarining taranglashuviga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan til unillarini rus va o'zbek tili unililari bilan qiyoslash. Undosh tovushlarni tasnif qilishda rus, o'zbek, ingliz, nemis, frantsuz, ispan va amerika olimlarining fikrlari. Undosh tovushlarni tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra va talaffuz kuchiga ko'ra: faol va passiv nutq organlariga ko'ra; tovush hosil bo'lishida to'siqning turiga ko'ra va shovqinning xarakteriga ko'ra; kichik tilning faoliyatiga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan tilda affrikat tovushlarining soni haqida fikrlar. O'rganilayotgan tildagi undoshlarni rus va o'zbek tili undoshlari bilan qiyoslash. Unli va undosh tovushlarning hosil bo'lishida asosiy farqlar. Turli tillarda mavjud bir xil tovushlarning sifat jihatidan farqlanishi.

Artikulyatsion baza tushunchasi. Segment fonemalar hosil bo'lishining akustik tomoni: nutq tovushlarining, fizik xususiyatlari (tovush tebranishi, cho'ziqligi, ovoz toni), ularning artikulyatsion shakli. Segment fonemalarning fonologik tomoni: fonemaga ta'rif berish muammosi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizov A.A. English Phonetics. Tashkent, 2007.
2. Peter Roach "English phonetics and phonology" Cambridge University press, 2000, 2 nd edition
3. Sokolova M.A. Theoretical Phonetics of Englis. Москва: "Феникс", 2010.

2-mavzu. Fonema nazariyasi

Fonemaning uch xususiyati yaxlitligidan iboratligi: uning material (talaffuz) tomoni, abstraktligi, umumiyliigi, funktsional, ya'ni ma'no farqlay olish xususiyati. Fonema va uning variantlari (allofonlar). Segment fonemalarning konstitutiv va distinktiv vazifalari. Urg'usiz unililar va ularning tasnifi. Transkriptsiya va uning turlari. Nutq tovushlarining o'zgarishi va ularning turlari. Bu haqda Moskva va Sankt Peterburg olimlarining qarashlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya va eliziya kabi tovush o'zgarishi xususiyatlari.

3-mavzu. Tillarda bo'g'in qurilishi

Bo'g'in fonetikaning talaffuz birligi sifatida. Bo'g'inning nutqdagi vazifalari. Bo'g'in hosil qiluvchi tovushlar. Bo'g'inning tarkibiy qismlari va turlari. Bo'g'in boshida va oxirida unli va undoshlarning birika olishi. O'rganilayotgan xorijiy tilda bo'g'in ajratish qoidalari. Bo'g'in haqida mavjud nazariyalar. Bo'g'inning vazifalari.

4-mavzu. So'z urg'usi

So'z urg'usi tushunchasi, ularning turlari (dinamik, musiqiy, sifat va miqdor urg'ulari). So'z urg'usining xususiyatlari. Urg'uning o'rmi va darajasi. Urg'u o'rmini belgilovchi omillar (retsessiv, ritmik, grammatik va semantik), ularning o'zaro munosabati. So'z urg'usining vazifalari.

5-mavzu. Intonatsiya

Intonatsiya ta'rifi. Tor va keng ta'rif. Intonatsiyaning tashkiliy qismlari va ularning vazifalari. Intonatsiya va prosodiya. Intonatsiyaning melodik komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Tekst hosil qilishda melodik komponentning roli. Melodik komponentning turlari. Intonatsiyaning gap urg'usi komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Gap urg'usining turlari. Gap urg'usi va so'z urg'usi munosabati. Gap urg'usining matn tuzishda ritmik va intonatsion guruhlar hosil qilishdagi roli. Gap urg'usining melodik komponent bilan o'zaro munosabati va gapning kommunikativ markazini hosil qilish qobiliyati. Gap urg'usining vazifalari. Intonatsiyani yozma ifodalash turlari (L.Armstrong va I.Uord sistemasi va R.Kingdon metodi). Intonatsiyaning raqamli va pog'onali ifodalanishi. Intonatsiyada nutq tezligi (temp), ovoz bo'yog'i (tembr), pauza (to'xtam) va ritm (urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar ketma-ketligi) kabi birliklarning vazifalari. Intonatsiyaning fonologik vazifasi. Intonema tushunchasi. Intonatsiyaning matn hosil qilish vazifasi.

6-mavzu. Nutqning fonostilistik xususiyatlari

Fonostilistikaning asosiy o'rganish ob'ektlari. Talaffuz normasi va uning stilistik farqlanishi masalasi. Fonetik uslublarni ifodalashda ekstralingvistik va paralingvistik vositalar. Tovush va intonatsiya stilistikasi. Intonatsion uslub turlari. Fonetik sinonimiya masalasi. Tovushlar simvolizmi tushunchasi.

3.01.2 O'rganilayotgan til tarixi fani dasturining asosiy nazariy qismi

1-mavzu. Roman - german tillari haqida umumiy ma'lumot

Roman va german tillarining hind-yevropa tillar oilasida tutgan o'rmi. Hozirgi zamon roman va german tillari, ularning tarqalishi va tasnifi. Roman va German qabilalari haqidagi ma'lumotlar: (Piteas, Yuliy Sezar, Tatsit) roman va german qabilalarining tasnifi va "xalqlarning buyuk ko'chishi" davrida ularning joylashishi. Roman - german va roman tillarining o'ziga xos xususiyatlari: undoshlarning birinchi ko'chishi, Grimm qonuni, Verner qonuni, unilarning o'zgarishi, otlarning turlanish tizimi, fe'llarning miqdor o'zgarishi va suffiksli fe'llarga ajralish tizimi, qadimgi alifbo, roman va german tillarining eng muhim yozma yodgorliklari va ularning tasnifi.

2-mavzu. Tillar tarixini davrlashtirish muammosi

Yevropa qit'asida Kel't qabilalari. Rim qo'shinlarining Britaniya orollarini bosib olishi, Rimliklar qurgan tarixiy obidalar. Mintaqada g'arbiy german qabilalari va ularning Rim bilan aloqasi. Anglo-sakson, friz va yut qabilalarining Britaniya orollarini istilo qilishi va anglo - sakson davlatlarining yuzaga kelishi. Lotin tili va uning roman tillarining shakllanishidaagi o'rmi va ahamiyati. Qadimgi alfavitlar va yozma yodgorliklar Nemis tilining paydo bo'lish tarixi. Roman-german tillari tovush tizimining tarixiy qonuniyatlari; palatallashuv. Sonor undosh birikmalari oldida unilarning cho'zilishi, keyingi undoshning tushib qolishi natijasida unilarning cho'zilishi. Undoshlarning birinchi va ikkinchi ko'chishi.

3-mavzu. Morfologiya

Roman-german tillari morfologiyasi. Otning grammatik kategoriyalari: rod, son, kelishik. Negiz asosida otlarning qadimgi tasnifi. Otlarda ko'plik shakllarining hosil bo'lishi va ularning turlari. So'zning morfologik strukturasi. Ichki fleksiya yordamida o'zakdagi unlining o'zgarishi. Tashqi fleksiya. Flektsiyasiz tovush almashinishi.

4-mavzu. Qadimgi german va roman tillarida sifat, olmosh va son

Sifatning ikki xil turlanishi: kuchli va kuchsiz turlanish, turlanishlarning paydo bo'lishi. Kishilik olmoshlari, olmoshlarda grammatik kategoriyalar: shaxs, son (ikkilik sonining mavjudligi), Ko'rsatish olmoshlarning paydo bo'lishi. Sanoq sonlar. Tartib sonlar.

5-mavzu. Qadimgi roman-german davrida fe'l

Kuchli va kuchsiz fe'llar. Preterit – prezent fe'llar va ularning morfologik xususiyatlari. Suppletiv fe'llar. Fe'llarning asosiy grammatik kategoriyalari: shaxs, son, zamon, mayl. Fe'lning analitik shakli masalasi. Nisbat kategoriyasi.

6-mavzu. Qadimgi roman va german tillarida sintaksis

Sintaksis. Gap turlari. So'roq gaplarda so'z tartibi. Gapda bosh bo'laklarning ifoda etilishi. Sodda gapda sintaktik aloqalarning ifodalanishi. Kelishiklarning vazifalari.

7-mavzu. Qadimgi roman- german tillari lug'at boyligi

Roman-german tillari lug'at tarkibi va ularning taraqqiyoti. Lug'at tarkibining xususiyatlari. Umum hind – yevropa va umum roman va german so'zlari, lug'at tarkibining boyib borishi va uning turli yo'llari: Affikslar yordamida so'zlar yasash. So'z yasash jarayonining mahsuldor va kam mahsullik xususiyatlarini aks ettiruvchi affikslar. Qo'shma so'zlar. qo'shma so'zlarni hosil qilish yo'llari. Tovush almashishi (umlaut). Eski so'zlarning yangi ma'noga ega bo'lishi. O'zlashtirma so'zlarning ishlatilishi.

8-mavzu. O'rganilayotgan til tarixining o'rta davri

O'rta davrning asosiy tarixiy voqealari. Unlilar tizimining o'zgarishi. Urg'usiz unilarning hosil bo'lishi va ularning keyinchalik tushib qolishi. O'rta davrda unilarning cho'zilishi va qisqarishi. Diftonglarning cho'zilishi va qisqarishi. Diftonglarning o'rta davrda cho'zilishi va qisqarishi. Diftonglarning o'rta davrda monoftonglashuvi. Yangi diftonglarning hosil bo'lishi. Undoshlar tizimining o'zgarishi. O'rta davrda grafikasidagi o'zgarishlar. Morfologiya. 12-15 asrlarda morfologiyada sodir bo'lgan o'zgarishlar. Otlarning turlanishida turlanishida kelishiklarning soddalashib borishi va ularning predlogi birikmalar bilan almashirilishi. Sifat darajalari. Qiyosiy darajalarda analitik shaklning yuzaga kelishi. Olmoshlarning turlanishida ikki kelishikning tizimga o'tishi. Ko'rsatish olmoshlarida ikki tuming hosil bo'lishi. Yangi olmoshlarning paydo bo'lishi. Aniq va noaniq artikllarning paydo bo'lishi. Kuchli fe'llar tizimidagi o'zgarishlar. Fe'l bo'yicha hozirgi zamon sifatdosh shakllarning o'ziga xos xususiyati. Fe'lning aniq, majhul va o'tgan zamon shakllarining yuzaga kelishi. Ravishdosh va infinitivning paydo bo'lishi. Ravishlarning suffikslar yordamida yasalishi. Suffikslarning soddalashuvi.

9-mavzu. Roman- german tillarida sintaksis

Gapning bosh bo'laklaridagi qat'iy tartibning asta – sekin qaror topishi. Qo'shimcha gaplarning rivojlanishi. O'rta davr lug'at tarkibining o'ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy tuzimning o'zgarishi, hunarmanchilik, savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti munosabati bilan lug'at tarkibining boyib borish yo'llari. Eskirgan so'zlarning yangi ma'noda ishlatilishi, affikslar yordamida yangi so'zlarning ishlatilishi. Ikki til, ya'ni skandinav va frantsuz tillari hisobiga ingliz va nemis tili lug'ati tarkibining boyib borishi.

10-mavzu. Tillar taraqqiyotining yangi davri

Roman-german tillari taraqqiyoti tarixining yangi davridagi asosiy tarixiy voqealari. Milliy tilning vujudga kelishida poytaxt shevasining ahamiyati. Maxalliy shevalarning saqlanib qolishi va ularning ijtimoiy ko'rinishlari. Kasb – hunar jargonlarining paydo bo'lishi. Kitob nashr qilinishi munosabati bilan milliy til yozma shaklining keng tarqalib borishi. Yangi davrda sodir bo'lgan asosiy fonetik o'zgarishlar. “Unlilarning buyuk ko'chishi”. Urg'usiz bo'lgan unilarning tushib qolishi. Yangi unli tovushlarning paydo bo'lishi. Unlilar va undoshlar tizimida sodir bo'lgan boshqa o'zgarishlar. Tillar grammatik tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlar. Fe'llarning noto'g'ri tuslanishi tizimidan to'g'ri fe'llar guruhiga o'tishi. Majhul nisbatning rivojlanishi, ish – harakat va holat passivi ma'nolarning farqlanishi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hogg R. Cambridge History of the English language, Volume I, 2005.
2. Rastorguyeva T.A. “A history of the English language”. M.: Vlados, 2003.
3. Кўлдошев А. “Инглиз тили тарихи”. Т.: 2011 (инглиз тилида)
4. Арсеньева А.А и др. Введение в германскую филологию. Москва. 1983.
5. Hogg R. An Introduction to Old English. Edinborough University Press, 2002, 174 p.
6. Ильиш.Б.А. “История английского языка”. -М., 1983 (инглиз тилида).
7. Kunin G. Historical changes and English word-formation: New vocabulary items.- N.Y., 1986.
8. Ильиш Б.А. Structure of Modern English.-М., 1975.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi savollari

3.01.1 Leksikologiya fani bo'yicha:

1. What principle are words grouped into the parts of speech according to?
2. What is grammatical meaning and grammatical form?
3. In what parts is grammar subdivided? What does each part deal with?
4. What is a grammatical category? What are the peculiar features of each grammatical category?
5. What is the binary opposition of the grammatical form?
6. What are the means of expressing a grammatical meaning?
7. What ways of building of new words do we find in any language?
8. What is the difference between synthetic and analytical means in grammar?
9. What grammatical meanings can be expressed by suffixation, sound-interchange and suppletive forms?
10. What can you say about agglutinated affixation?
11. What can you say about inflected affixation?
12. What problems arise in connection with analytical forms?
13. What is the difference between grammatical analytical form and free word combination or fixed word combination?
14. What is meant by the degrees of grammaticalization in analytical forms?
15. What analytical forms may be called complete and incomplete?
16. What factors predetermine different approaches to the parts of speech classification?
17. Why can't the form be regarded as the only criteria for the classification?
18. Can the function of a word help to class words into certain groups?

3.01.4 Nazariy grammatika fani bo'yicha:

1. What type of grammatical description is English grammatical theory represented by?
2. What do the scientists of the traditional school of grammar rely on in their studies of different grammatical phenomena?
3. What does a new approach of the American school of Structural Linguistics consist of?
4. How does transformational grammar differ from other schools of grammar?
5. What is grammatical structure?
6. What is the main shortcoming of establishing word-classes suggested by the linguist Fries?
7. What principles should be taken into consideration in the parts of speech classification? What are the three principles worked out by our linguists?

8. What is meant by combinability in the classification of words? Why it is necessary to consider it in the classification of words into certain groups?
9. What can you say about notional and function (formal) words?
10. Give some examples to prove the disputable problems existing in linguistics concerning the grammatical categories of parts of speech.
11. Describe noun as a part of speech. What are the semantic features of a noun? What grammatical categories of a noun do you know? How are the grammatical categories of nouns expressed?
12. What can you say about the possessive case in English? Does it always express the meaning of possession?
13. What can you say about the homonymity of grammatical forms?
14. What does the problem of an analytical case consist of?
15. What reasons does Vorontsova put forward to substantiate her theory denying the existence of the category of case in English?
16. What is the essence of a three-case-theory introduced by Curme?
17. What is the main drawback of the four-case-theory introduced by Curme?
18. Describe the verb as a part of speech. What are the semantic features of a verb? What can you say about the morphological features of the verb?
19. What can you say about terminative verbs? Is it grammatical feature of the verb? What can you say about durative verbs? Is it grammatical feature of the verb?
20. Is the aspect in English grammatical or lexical category? What opposition in the category of aspect in English based on?
21. What can you say about the marked and non-marked aspect forms in English?
22. Why is the tense form system in modern English considered a developed one?
23. Describe the adjective as a part of speech? What are the semantic features of the adjective? What grammatical category has the adjective?
24. Describe the pronoun as a part of speech?
25. What structures of the word in English do you know?
26. How is the system of language defined in the theory of grammar?
27. What does the linguistic typology study?
28. What can you say about the different viewpoints to the linguistic typology?
29. Speak about differences between linguistic and non-linguistic typology.
30. What methods of investigation do you know?
31. What can you say about internal and external approaches to comparison?
32. What are the main periods of development of linguistic typology?
33. Characterize universal grammar linguistics.
34. Give definition of the term "grammatical category" and its historic development.
35. How do you characterize main factors of development of linguistic typology?

36. What is the difference between formal and content approach to comparison?
37. What is one-level and cross level approach to comparison? What are the main types of typologies due to the mentioned criteria?
38. Characteristic features of genetic typology: genetic, diachronic and synchronic typologies.
39. What language does areal typology study?
40. What are the main criteria, which characterize comparative typology?
41. What does the term "linguistic universals" mean?
42. How do you understand the term "etalon language"?
43. What kinds of classification of languages do you know?
44. Characteristic features of typological classification. Write about each type of languages.
45. How do you understand the term "typological theory"?
46. What does the morphological typology study?
47. Characterize the syntactic typology?
48. What does lexical typology consist of?
49. What two plans of language do you know and how do the linguists differentiate them?
50. Write about formal typology, its features.
51. Write about content approach to comparison.
52. Write about semantic typology, its features. What are the main differences between lexical and semantic typologies?
53. Write about the history of the development of grammatical categories.
54. Different viewpoints to the problem of categorization in grammar.
55. Characterize notional, functional-semantic, grammatical-lexical and other categories.
56. Typological categories and their definition, main criteria.
57. How do you understand the main parameters: interlanguage, interlevel, interclass?
58. What led to the disappearance of case forms in English morphology?
59. Characterize phonological/ morphological levels of the language.
60. Characterize lexical/ syntactic levels of the language.
61. What is the main unit of the phonological level?
62. What are supersegmentative units?
63. How do the linguistic typology cooperate with other branches of science?
64. Write about cooperation of linguistic typology with theory of translation.
65. What political and social events affected the evolution of the English language?

3.01.2 Nazariy fonetika fani bo'yicha:

1. Explain the syllabic structure of English.
2. What are the aspects of Phonetics?
3. How do the types of Phonetics differ from each other?
4. What are the functions of phonetic elements?
5. Explain the importance of the organs of speech in Phonology.
6. How do you characterize the active organs and passive organs?
7. Explain the classification of Speech Sounds
8. Define the types of Obstruction.
9. Explain the characteristic features of transcription
10. What are the actual phonological theories?
11. Explain the principal types of English pronunciation
12. How do you explain the system of consonant phonemes in English?
13. Explain the characteristic features of the vowel consonant distinction in English.
14. Define the articulatory and acoustic classification of English consonants (in comparison with Uzbek).

3.01.2 O'rganilayotgan til tarixi fani bo'yicha:

1. Name the eleven principle groups in the Indo-European family. What features bring the languages into relationship?
2. What is Sanskrit? Why is it important in the reconstruction of Indo-Europeans? How do you prove that English indirectly must have originated from Sanskrit?
3. When did the sound change described by the Grimm's Law occur? In what year did Grimm formulate the law? Explain why Grimm's Law is important in historical discussions of the English language.
4. Explain why the following people and events are important in historical discussions of the English language: *Celts, Roman Conquest, Emperor Claudius, Julius Caesar, Venerable Bede, Anglo-Saxon Conquest, Æthelbert, king of Kent*
5. How could Latin influence the English language if English had not been in use in Britain till the V century?
6. What do we mean by substitution?
7. Who suggested T-grammar as a new method of analyzing the "raw material"?
8. What types of bound morphemes do you know?
9. What kind of association are involved in various semantic changes?
10. What is similarity of meanings?
11. What are the two main types of meaning? Explain.
12. Who was the first to introduce neutralization as a linguistic concept?

13. Who was the first to treat language as a system whose parts are mutually interconnected and interdependent?
14. What are the main components of lexical meaning?
15. What is a homoform? What are homophones?
16. At approximately what date did the invasion of Britain by the Germanic tribes begin? Where were the homes of the Angles, Saxons, and Jutes? Where does the name *English* come from? What century and in what way did the name *English* begin to be applied for the people who lived in Britain?
17. What are the dates of Old English, Middle English, and Modern English? Define or explain briefly: *The dividing lines between the periods in the history of English are purely arbitrary.*
18. What are the OE dialects? Explain the geographical position of each dialect. Which of the dialects was of the Angles? What about the Saxons and Jutes? Why is it considered that the West Saxon dialect attained something of the position of a literary standard in OE?
19. Due to what differences one cannot read a text in OE? What characters of OE do not form Modern English alphabet?
20. What characteristics does English share with other Germanic languages? To which branch of Germanic does English belong?
21. How do the nouns of OE illustrate the marked synthetic character of English in its earliest stage? According to what features are the certain stems of vowel declension in nouns united into the division? Why are the different types of declensions in OE referred to as stems? How was the gender of OE nouns defined?
22. Is OE grammar synthetic or analytic according to its inflections? What kinds of inflections do the OE noun and adjective have? What distinctive inflections does the OE verb have?
23. How does the Old English definite article differ from the definite article of Modern English?
24. What is the only part of speech, which have retained more archaic traits in ModE than other parts of speech? Why?
25. Did nouns, adjectives, and pronouns have the same number of cases in Old English? Explain.
26. Explain the difference between weak and strong verbs. How many classes of strong verbs were there in OE? Did the OE verb have as many grammatical categories as the ModE verb?
27. What dialects were mostly influenced by the Scandinavian invasions? What level of the language was considerably affected because of the Scandinavian languages?

28. Explain why the following people are important in historical discussions of the English language: *Edward the Confessor, Harold Godwin, William, duke of Normandy, Edward III, Henry IV, Caxton*
29. How would the English language probably have been different if the Norman Conquest had never occurred? What kind of position did the English language have during the Norman domination in Britain? For how long after the Norman Conquest did French remain the principal language of the upper classes in England? In general, which parts of the population spoke English, and which French?
30. Compare the position of the Old Scandinavian and Anglo-Norman (French) in Early ME (comment on the geographical, social, and linguistic differences).
31. What events and historical conditions predetermined and prepared the victory of English after the French domination?
32. When did the Great Vowel Shift occur? What is its essence? Why is the Great Vowel Shift responsible for the anomalous use of the vowel symbols in English spelling?
33. What is the characteristic feature of the English language in 16-17th centuries?
34. Why did the literary works of Shakespeare appear with the arbitrary changes in the 18th century?
35. When and by whom was "*Dictionary of the English Language*" published? How does the author define the English language of the 18th century?
36. What new phonemes (consonants, vowels) appeared in ModE as compared to the OE period?
37. Due to what accounts does the development in the consonant sphere seem to be less clear in EL history?
38. In what ways was the vocabulary of the English language enriched through its historical development?
39. Define: grammatical means of expression have been superseded by lexical means in the MnE period.
40. Why cannot the notion of progress or regress be applied to the development of the case system and prepositional phrases in English?
41. Which part of speech has lost the greatest number of grammatical categories in MnE compared to that of OE? Prove your statement.
42. How can "simplification" be applied to the development of adjectives through their historical development?
43. Which part of speech has acquired new categories in MnE?
44. Modern trends of linguistics. Cognitive Linguistics, Linguoculture, Pragmatic linguistics, etc. Define the tasks and specifications.

45. Give the definition to the following notions in Linguistics: verbal and non verbal communication.
46. Give the definition to the following notions in Linguistics: the nature and essence of the language
47. Give the definition to the following notions in Linguistics: language and speech.
48. What is the characteristic feature of the language and society? What is social thinking? What linguists have worked on these issues?
49. What are language levels and their units? Explain their interrelation briefly.
50. What is conveyed by language as a system of signs? What is Semiotics? What are the types of the system of signs?
51. What are the peculiarities of the Ancient linguistics?
52. What are the methods of linguistic research? Define.
53. What are the peculiarities of the comparative linguistics? Who were the representatives of this period and what is their contribution to Linguistics?